



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

**BANKLARDA KREDITLAR TASNIFINI YAXSHILASH ORQALI RENTABELLIKNI
TA’MINLASH YO‘LLARI**

**ПУТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РЕНТАБЕЛЬНОСТИ БАНКОВ ЗА СЧЁТ
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КЛАССИФИКАЦИИ КРЕДИТОВ**

**WAYS TO ENSURE BANK PROFITABILITY THROUGH IMPROVING LOAN
CLASSIFICATION**

Kinjayev Kattakul Nurmatovich

Tayanch doktorant Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

ORCID: 0009-0002-9315-1395

Annotatsiya

Ushbu maqolada tijorat banklarida kreditlar tasnifini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari hamda uning bank rentabelligiga ta’siri yoritiladi. Kreditlar tasnifi kredit portfeli sifati, zaxiralar yetarliligi va daromadlilikni boshqaruvchi muhim instrument sifatida talqin qilinadi. Amaldagi me’yoriy asoslar va Markaziy bank talablari tahlil qilinib, rasmiy statistik ma’lumotlar asosida kredit portfeli va muammoli kreditlar holati baholanadi. Tadqiqot natijasida kreditlarni ko‘p qatlamli (tarmoq, hudud, valyuta va boshqalar bo‘yicha) tasniflash bank rentabelligini oshirishning muhim omili ekani asoslanadi.

Kalit so‘zlar: kredit portfeli, kreditlar tasnifi, rentabellik, muammoli kreditlar, zaxiralar, kredit riski, tavakkalchiliklarni boshqarish, bank samaradorligi, O‘zbekiston bank tizimi.

В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты совершенствования классификации кредитов в коммерческих банках, а также её влияние на рентабельность банков. Классификация кредитов трактуется как важный инструмент управления качеством кредитного портфеля, достаточностью резервов и доходностью. Проанализированы действующие нормативно-правовые основы и требования Центрального банка, а на основе официальных статистических данных дана оценка структуры кредитного портфеля и уровня проблемных кредитов. В результате исследования обосновано, что многослойная классификация кредитов (по отраслям, регионам, валюте и др.) является важным фактором повышения рентабельности банков.

Ключевые слова: кредитный портфель, классификация кредитов, рентабельность, проблемные кредиты, резервы, кредитный риск, управление рисками, эффективность банков, банковская система Узбекистана.

This article examines the theoretical and practical aspects of improving loan classification in commercial banks and its impact on bank profitability. Loan classification is interpreted as an important tool for managing credit portfolio quality, adequacy of reserves, and profitability. The current regulatory framework and Central Bank requirements are analyzed, and based on official statistical data, the structure of the credit portfolio and the level of non-performing loans are assessed. The study concludes that a multi-layered classification of loans (by sector, region, currency, etc.) is a key factor in enhancing bank profitability.

Keywords: credit portfolio, loan classification, profitability, non-performing loans, reserves, credit risk, risk management, banking efficiency, banking system of Uzbekistan.

Bank faoliyatining daromad bazasi tarkibida kredit operatsiyalarining ulushi yuqori bo‘lgan sharoitda kreditlar tasnifining aniqligi rentabellik masalasini ikkilamchi emas, balki markaziy boshqaruv muammosiga aylantiradi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yil

yakunlari bo'yicha yillik hisobotida banklar jami daromadlarining 67 foizi foizli daromadlar hissasiga to'g'ri kelgani, foizli daromadlarning 91 foizi esa kreditlar va mijozlarning majburiyatlaridan shakllangani qayd etilgan. Shu hisobotda 2024-yilda foizsiz xarajatlarning 70,4 foizga oshishi fonida bank tizimi aktivlari rentabelligi 1,4 foizgacha, kapital rentabelligi esa 6,6 foizgacha pasaygani ko'rsatilgan [4]. Bu ma'lumotlar kredit portfelining sifati va uning to'g'ri tasniflanishi foyda ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir qilishini yaqqol tasdiqlaydi.

Kreditlar tasnifi mohiyatan bank aktivlarini qaytish ehtimoli, risk darajasi va daromad keltirish salohiyatiga ko'ra guruhlariga ajratish tizimidir. Bunday tizim to'g'ri ishlaganda bankning real moliyaviy holati yashirilmaydi, ehtimoliy yo'qotishlar oldindan hisobga olinadi, zaxiralar yetarli shakllantiriladi va kredit resurslari yuqori rentabellik hamda maqbul risk tamoyili asosida qayta taqsimlanadi. Aksincha, kreditlarni yuzaki tasniflash bankni qisqa muddatli “qog'ozdagi foyda”ga olib keladi, biroq keyingi davrda keskin zaxiralash, foiz daromadining yo'qolishi, restrukturizatsiya xarajatlarning oshishi va kapital bosimining kuchayishi sababli umumiy rentabellik pasayadi. O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi Qonuni bank faoliyatining prudensial asoslarini belgilaydi, Markaziy bank esa aktivlar sifati, zaxiralash va risklarni boshqarish bo'yicha me'yoriy talablarni joriy etadi [1; 2].

Mavzuning dolzarbligi O'zbekiston bank tizimidagi so'nggi tendensiyalar bilan yanada kuchaymoqda. 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra tijorat banklari kredit portfeli 533,1 trln so'mni, muammoli kreditlar hajmi 21,2 trln so'mni, ularning ulushi 4,0 foizni tashkil etgan. 2025-yil 1-iyul holatiga kelib jami kredit portfeli 575,2 trln so'mga yetgan, muammoli kreditlar 21,87 trln so'mni tashkil etgan va ulush 3,8 foizgacha pasaygan [6; 7]. Ulushning pasayishi ijobiy ko'rinsa-da, muammoli kreditlarning mutlaq hajmi yuqori darajada saqlanib qolayotgani banklar uchun tasniflash, monitoring va qayta tiklash mexanizmlarini chuqurlashtirish zarurligini ko'rsatadi. 2025-yil birinchi yarim yilligi bo'yicha ROA 2 foiz, ROE 10,8 foiz, kapital monandiligi 17,4 foiz va LCR 195 foiz bo'lgani tizim barqarorligini bildiradi, lekin ushbu natijalarni saqlab qolish kredit portfeli sifati bilan uzviy bog'liq [5].

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda kredit portfeli sifati va rentabellik o'rtasidagi bog'liqlik turli nuqtai nazardan yoritilgan. F.K.Xolmamatov kreditlashni tashkil etish asoslari, kredit portfelini shakllantirish mezonlari va ularning nazariy-huquqiy bazasini banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashning tayanch omili sifatida ko'radi. U kredit qo'shilmalarining tarkibi va tasnifi, muammoli kreditlar dinamikasi hamda zaxiralarning kreditlardagi ulushini birgalikda tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi [9]. M.M.Adilov esa kredit siyosatini kredit portfeli samaradorligini oshirishning asosiy institutsional vositasi deb baholab, portfel sifatini risk, daromadlilik va likvidlik mezonlari orqali baholash lozimligini asoslaydi [10]. Bu yondashuvlar kreditlar tasnifini bank ichki siyosati, risk baholash amaliyoti va foydalilik ko'rsatkichlari bilan bog'lashda muhim metodologik asos beradi.

R.H.Maxmudovning tadqiqotlarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotidagi kamchiliklar chuqurroq ochib berilgan. Muallif muammoli kreditlarni muddati, sifati, ta'minoti, resurs manbasi va kredit ajratish haqidagi qarorni qabul qiluvchi subyekt bo'yicha tasniflash amaliy rejalashtirishni yaxshilashini ko'rsatadi [11]. Boshqa bir maqolasida u muammoli kreditlarning yuqori darajasi kapital bazasini yemirishi, likvidlikni pasaytirishi va kreditlash imkoniyatlarini toraytirishi orqali rentabellikka salbiy ta'sir ko'rsatishini qayd etadi [8]. Mazkur ilmiy qarashlar kredit tasnifini faqat hisobot uchun qo'llaniladigan standart bo'linma sifatida emas, balki foyda va risk o'rtasidagi muvozanatni boshqaruvchi ko'p o'lchamli tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi. Shu bilan birga amaliyotda ko'pincha prudensial tasnif bilan boshqaruv tasnifi o'rtasida uzilish mavjud bo'lib, aynan shu bo'shliq rentabellikni to'liq boshqarishga to'sqinlik qilmoqda.

Kreditlar tasnifini yaxshilash masalasini to'g'ri tushunish uchun, avvalo, tasniflashning iqtisodiy mazmuni va amaliy vazifalarini aniqlash muhim hisoblanadi. Amaldagi me'yoriy bazaga muvofiq kreditlar va boshqa aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantiriladi hamda ular standart, substandart, qoniqarsiz, shubhali va umidsiz toifalarga ajratiladi [2]. Mazkur tasniflash tizimi orqali banklar kredit riskini baholaydi, ehtimoliy yo'qotishlarni oldindan hisobga oladi va moliyaviy natijalarni real holatda aks ettirish imkoniga ega bo'ladi. Shu bois

kreditlar tasnifi bank rentabelligini shakllantiruvchi muhim boshqaruv instrumenti sifatida namoyon bo‘ladi.

Kreditlar tasnifi samarali ishlashi uchun u bir nechta o‘zaro bog‘liq bloklar asosida shakllanishi lozim. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, faqat prudensial tasnif bilan cheklanib qolish bankning real risk va daromadlilik holatini to‘liq ochib bera olmaydi. Shu sababli kreditlarni kengroq mezonlar asosida guruhlash zarur.

1-jadval

Kreditlar tasnifining asosiy bloklari va ularning funksional vazifalari

Tasnif bloki	Mazmuni	Asosiy vazifasi
Prudensial blok	Kreditlarni sifat toifalari bo‘yicha ajratish (standart, substandart va b.)	Kredit riskini aniqlash va zaxiralar shakllantirish
Boshqaruv bloki	Kreditlarni tarmoq, hudud, valyuta, muddat va mijoz segmenti bo‘yicha guruhlash	Kredit portfelini samarali boshqarish
Rentabellik bloki	Kreditlar bo‘yicha sof foiz marjasi, riskka mos daromadlilik va xarajatlarni hisoblash	Bank foydasini va samaradorligini baholash
Xulqiy blok	Qarzdorning to‘lov intizomi, pul oqimi va moliyaviy xatti-harakatlarini tahlil qilish	Erta ogohlantirish va monitoring tizimini kuchaytirish

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kreditlar tasnifi faqat nazorat vositasi emas, balki kompleks boshqaruv tizimi hisoblanadi. Har bir blok bank faoliyatining muayyan jihatini qamrab olib, umumiy holda kredit portfelining sifati va daromadlilikini oshirishga xizmat qiladi.

Kreditlar tasnifining rentabellikka ta’siri bir nechta mexanizmlar orqali yuzaga chiqadi. Kredit noto‘g‘ri baholanganda bank daromadlari sun’iy ravishda yuqori ko‘rinadi, ammo vaqt o‘tishi bilan kechikishlar, qo‘shimcha zaxiralash va operatsion xarajatlar ortishi natijasida foyda kamayadi. Aksincha, to‘g‘ri tasniflash kreditlarning haqiqiy daromadlilikini aniqlash, foiz siyosatini optimallashtirish va risklarni minimallashtirish imkonini beradi. Ayniqsa riskka moslashtirilgan daromadlilik yondashuvi bankni yuqori risklik, ammo past samarali kreditlardan voz kechib, barqaror foyda keltiruvchi segmentlarga yo‘naltiradi [10].

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari kreditlar tasnifi va rentabellik o‘rtasidagi bog‘liqlikni yaqqol tasdiqlaydi. 2025-yil boshida kredit portfelining asosiy qismi standart kreditlardan iborat bo‘lsa-da, substandart kreditlar ulushining yuqoriligi kelajakdagi risklarning mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, muammoli kreditlar ulushi kamayganiga qaramay, ularning mutlaq hajmi yuqori darajada qolmoqda, bu esa banklar uchun tasniflash va monitoring tizimini yanada takomillashtirish zarurligini anglatadi [4; 6; 7].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kreditlar tasnifini takomillashtirishning eng samarali yo‘nalishi prudensial va boshqaruv tasniflarini integratsiyalashgan tizimga birlashtirishdir. Bunda kreditlar bir vaqtning o‘zida risk, daromadlilik va xulqiy omillar asosida baholanadi. Natijada banklar kredit portfelini optimallashtirish, yashirin muammolarni erta aniqlash hamda rentabellikni barqaror oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash rentabellikni oshirishning yordamchi emas, tayanch omilidir. Kredit portfeli sifati noto‘g‘ri o‘lchangan bankda foyda ham noto‘g‘ri o‘lchanadi, zaxiralar kechikib shakllanadi, kapitaldan foydalanish samarasizlashadi va boshqaruv qarorlari kechikadi. O‘zbekiston sharoitida ushbu masala ayniqsa muhim, chunki bank daromadlarining asosiy qismi kredit operatsiyalariga tayanadi, kredit portfeli hajmi kengayishda davom etmoqda va muammoli kreditlar ulushi nisbatan past ko‘rinsa ham, ularning mutlaq hajmi yuqori bo‘lib qolmoqda. Shu sababli kreditlarni standart prudensial toifalarga ajratish bilan cheklanmasdan, ularni tarmoq, hudud, valyuta, ta’minot, qarzdor xulqi va riskka moslashtirilgan daromadlilik bo‘yicha ko‘p bosqichli tasniflash bank foydasining barqaror manbasini yaratadi. Kredit siyosati, tavakkalchiliklarni boshqarish, raqamli monitoring, erta ogohlantirish indikatorlari va qayta tiklash strategiyalarini yagona tizimga keltirgan banklarga uzoq muddatli rentabellikni ta’minlay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida. O‘RQ-580, 2019-yil 5-noyabr. (Lex.uz)
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori. Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida. Ro‘yxat raqami 2696, 2015-yil 14-iyul. (Lex.uz)
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmoni. (Lex.uz)
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobot 2024. Toshkent, 2025.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy barqarorlik sharhi. 2025-yil birinchi yarim yilligi. Toshkent, 2025. (Центральный банк Узбекистана)
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining muammoli kreditlari to‘g‘risida 2025-yil 1-yanvar holatiga ma’lumot. Toshkent, 2025. (Центральный банк Узбекистана)
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining muammoli kreditlari to‘g‘risida 2025-yil 1-iyul holatiga ma’lumot. Toshkent, 2025. (Центральный банк Узбекистана)
8. Maxmudov R.H. Tijorat banklarining muammoli kreditlarini qisqartirish masalalari // Moliyaviy texnologiyalar. 2024. № 3. B. 57-66.
9. Xolmamatov F.K. Banklar moliyaviy barqarorligini ta’minlash masalalari // Moliyaviy texnologiyalar. 2023. № 2. B. 22-35.
10. Adilov M.M. Tijorat banklari kredit portfeli samaradorligini oshirishda kredit siyosatining o‘rni va ahamiyati // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali. 2024. T. 4. № 7. B. 38-45.
11. Maxmudov R.H. Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari // International Finance & Accounting. 2024. № 4. B. 1-10.

УДК:334.722.8

**ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОДДЕРЖКА ЭКСПОРТНОГО ПОТЕНЦИАЛА СУБЪЕКТОВ
МАЛОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
EKSPORT SALONIYATINI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH.**

**STATE SUPPORT FOR THE EXPORT POTENTIAL OF SMALL ENTREPRENEURSHIP
ENTITIES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Макушина Алла Юрьевна

и.доц кафедры «Международная экономика»,
Ташкентского Международного Университета Киме

Аннотация

В статье показана возрастающая роль и место субъектов малого предпринимательства в развитии внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан, рассматривается механизм государственного стимулирования деятельности субъектов малого предпринимательства при выходе на мировую арену, анализируются нормативно-правовые акты, активизирующие экспортный потенциал субъектов малого предпринимательства в новом Узбекистане.

Ключевые слова: малое предпринимательство, государственная система поддержки предпринимательства, либерализация внешнеэкономической деятельности, экспортный потенциал.